

**9-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI.****I chorak BSB (bob bo‘yicha summativ baholash) mavzulari va topshiriqlari.**

|                          |  |                                                                                  | <b>O‘tkazilish<br/>muddati</b>                          | <b>Ball</b>    |
|--------------------------|--|----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1-BSB</b>             |  |                                                                                  |                                                         |                |
| <b>№</b>                 |  | <b>Mavzular</b>                                                                  |                                                         |                |
| 1.                       |  | <b>Kirish</b>                                                                    | <b>7-12.10.<br/>2025-yil<br/>(1 hafta<br/>davomida)</b> | <b>50 ball</b> |
| 2.                       |  | <b>XV asrning oxiri – XVI asrning<br/>boshlarida Turonda siyosiy<br/>vaziyat</b> |                                                         |                |
| 3.                       |  | <b>Muhammad Shayboniyning<br/>siyosiy maydonga chiqishi</b>                      |                                                         |                |
| 4.                       |  | <b>Shayboniylar davrida davlat<br/>boshqaruvi</b>                                |                                                         |                |
| 5.                       |  |                                                                                  |                                                         |                |
| <b>Formativ baholash</b> |  |                                                                                  |                                                         | <b>10 ball</b> |
| <b>Jami ball</b>         |  |                                                                                  |                                                         |                |

**I variant**                      **Sana:** \_\_\_\_\_  
**Sinf** \_\_\_\_\_                **O‘quvchining**  
**F.I.SH.** \_\_\_\_\_

**2-topshiriq. Tarixiy shaxsga oid ma'lumot o'qib, kimga tegishli ekanligini aniqlang va shaxs nomini yozing. (Baholash mezonlari: har bir to'g'ri javob uchun 2 baldan. Maksimal 10 ball)**

| № | Ma'lumot                                                                                                                                               | Shaxs |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| 1 | 16 yoshida Qipchoq Dashtidagi turk-mo'g'ul qabilalarining 200 dan oshiq sarkardalarining qo'llab-quvvatlashlari orqali «Ulug'xon» deb e'lon qilindi.   |       |
| 2 | U Mironshohning nabirasi hisoblanib, Ulug'bek fojiasidan so'ng taxtga chiqqan Abdullatif o'ldirilgach, Buxoroda podshoh qilib ko'tarilgan.             |       |
| 3 | 1446-yilda Temuriylarga tegishli bo'lgan Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Sig'noq, Oqqo'rg'on. Arquq va O'zgan shaharlarini bosib oldi.           |       |
| 4 | 1469-yilda Xuroson hokimi sifatida Hirot taxtini egallaydi. Natijada Temuriylar davlati yana ikki mustaqil qismga bo'linib ketadi.                     |       |
| 5 | Ikki marta Samarqandni egallash uchun qilgan harakati muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. 1497-yilning kuzida 7 oylik qamaldan keyin Samarqandni egallaydi. |       |

**3-topshiriq. Quyida berilgan tarixiy atamalarni izohlang.**(Baholash mezonlari: har bir to'g'ri javob uchun 2 ball. Maksimal 10 ball)

| №  | Atamalar          | Mazmuni |
|----|-------------------|---------|
| 1. | <i>Dargoh</i>     |         |
| 2. | «Navvob»          |         |
| 3. | <i>Otaliq</i>     |         |
| 4. | <i>Ko'kaldosh</i> |         |
| 5. | <i>Mushrif</i>    |         |

**4. Tarixiy manba muallifi nomini yozing.** (Baholash mezonlari: har bir to'g'ri javob uchun 3 balldan qo'yiladi. Barchasi to'g'ri bo'lsa, 10 ball qo'yiladi)

| № | Manba                | Muallif |
|---|----------------------|---------|
| 1 | “Abulxayrxon tarixi” |         |
| 2 | “Abdullanoma”        |         |
| 3 | “Haft iqlim”         |         |

**5-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing. Matn qaysi manbadan olinganligini va asar muallifini yozing.** (Baholash mezonlari: Manba nomi yozilsa 5 ball, muallif nomi yozilsa 5 ball. Maksimal 10 ball)

To'lg'amaga tayinlangan askarlarga o'ng va chap qo'ldan dushmanning orqa tomoniga o'tib, o'q otib urush boshlashlari, o'ng va chap qanotlardagilar ham dushman bilan olishishlari uchun farmon bo'ldi. To'lg'amadagilar dushman orqasiga o'tib, o'q ota boshladilar. Chap qanotdagi Mahdiy Xo'ja jangni hammadan oldin boshlab yubordi. Mahdiy Xojaga qarshi bir to'da askar bir fil bilan bostirib keldi. Mahdiy Xojaning odamlari ko'p o'q yog'dirib, ularni chekinishga majbur qildi. Chap qanotga markazdan Ahmadiy parvonachi, Turdibek Qo'chbek va Muhib Ali xalifa yordamga yuborildi. O'ng qanotda ham jang boshlanib ketdi. Muhammad Ali ko'kaldosh, Shoh Mansur barlos, Yusuf Ali va Abdulloga markaz qo'shini oldida turib jang boshlash buyurildi.

**1. Manba nomi:**

---

**2. Muallif nomi:**

---

# 9-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI.

## BSB-1. Baholash mezonlari.

### I variant

|                                     | Javoblar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                           | Jami ball                                                                                   |
|-------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-topshiriq.<br>Maksimal<br>10 ball | <p><i>Abulxayrxonning o‘g‘li Shohbudog‘ Sulton to‘ng‘ich o‘g‘liga Sulton Muhammad Shayboniy deb ism qo‘ygan. Taxallusi esa “Shohbaxt” edi. Shayboniyxon esa bobosining davlatini 1480-yilda qayta tiklaydi. Shayboniyxon 1499-yilda Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzga bosib boradi va katta o‘lja bilan Qipchoq dashtiga qaytadi. 1500-yil Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi. Shu yili yoq Buxoro ham zabt etiladi.</i></p> <p><i>1501-yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shini yengiladi. Samarqand Muhammad Shayboniyxon qo‘liga o‘tadi. 1503-yilda Shayboniyxon Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shinini Sirdaryo bo‘yida tor-mor qiladi. Shayboniyxon 1505–1507-yillar ichida Urganch, Balx, Hirotida ham o‘z hokimiyatini o‘rnatadi. 1510-yili Marv yaqinida Ismoil Safaviy qo‘shini bilan yuz bergan jangda halok bo‘ladi.</i></p> |                           | 10 ball                                                                                     |
| 2-topshiriq.<br>Maksimal<br>10 ball | T/R                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Javoblar                  | Ball                                                                                        |
|                                     | 1                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Po‘lat Sulton             | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 2                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Sulton Abu Said           | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 3                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Abulxayrxon               | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 4                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Husayn Boyqaro            | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 5                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Zahiriddin Muhammad Bobur | 2 ball                                                                                      |
| 3-topshiriq.<br>Maksimal<br>10 ball | Javoblar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                           | Ball                                                                                        |
|                                     | 1. Davlat boshqaruvning oliy organi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                           | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 2. Taxt vorisi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                           | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 3. Shahzodalar tarbiyasiga mutasaddi amaldor                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                           | 2 ball                                                                                      |
|                                     | 4. Oliy hukmdor va sulolaga eng yaqin kishilardan biri sanalib, odatda, hukmron sulolaning biror-bir vakili bilan bir onani emgan shaxs bo‘lgan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                           | 2 ball                                                                                      |
| 4-topshiriq.<br>Maksimal<br>10 ball | 5. Zimmasiga hukmdor tomonidan tortiq qilingan kiyimlar, harbiy asbob-anjomlar, shuningdek, soliq daftarlariga yig‘ilgan xirojni yozib borish yuklatilgan amaldor                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                           | 2 ball                                                                                      |
|                                     | Javoblar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                           | Ball                                                                                        |
|                                     | <p>1. Mas‘ud bin Usmoniy Kuhistoniy</p> <p>2. Hofiz Tanish Buxoriy</p> <p>3. Amin Ahmad Roziy</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                           | Har bir to‘g‘ri javob uchun 3 balldan qo‘yiladi. Barchasi to‘g‘ri bo‘lsa, 10 ball qo‘yiladi |
|                                     | Javoblar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                           | Ball                                                                                        |
|                                     | 1. “Boburnoma”                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                           | 5 ball                                                                                      |

|                                         |                              |        |
|-----------------------------------------|------------------------------|--------|
| 5-<br>topshiriq.<br>Maksimal<br>10 ball | 2. Zahiriddin Muhammad Bobur | 5 ball |
|-----------------------------------------|------------------------------|--------|